UO‘K: 37.013:159.942

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR HISSIY INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING NAZARIY ASOSLARI

Tashbayeva Ugilshod Abduvaxidovna

Boshlang’ich ta’lim kafedrasi katta o’qituvchisi,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Annotatsiya. *Tezisda pedagogik ta’lim muassasalari talabalarining hissiy intellektini rivojlantirish muammosining nazariy asoslari tahlil qilingan. Hissiy intellektning asosiy modellari, uning o‘qituvchilik faoliyatidagi o‘rni hamda rivojlantirish imkoniyatlari milliy va xorijiy yondashuvlar asosida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *hissiy intellekt, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, empatiya, o‘z-o‘zini anglash.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В тезисах анализируются теоретические основы проблемы развития эмоционального интеллекта студентов педагогических вузов. На основе национальных и зарубежных подходов раскрыты основные модели эмоционального интеллекта, его роль в педагогической деятельности и возможности развития.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, будущий учитель, педагогическая деятельность, педагогическое общение, эмпатия, самосознание.*

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE PROBLEM OF DEVELOPING EMOTIONAL INTELLIGENCE OF FUTURE TEACHERS

Abstract. *The paper analyses the theoretical foundations of developing emotional intelligence in students of pedagogical higher education institutions. Drawing on national and international approaches, it outlines the main models of emotional intelligence, its role in teaching practice and the possibilities of its development.*

Keywords: *emotional intelligence, future teacher, pedagogical activity, pedagogical communication, empathy, self-awareness.*

Kirish

Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [1] va 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [2] zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Pedagogik faoliyat doimiy muloqot va hissiy reaksiyaning kuchayishi bilan bog‘liq keskin vaziyatlarga to‘la bo‘lgani uchun o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligida bilim va ko‘nikmalar bilan bir qatorda shaxs hissiy sohasining rivojlanganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi – pedagogik ta’lim muassasalari talabalarining hissiy intellektini rivojlantirish muammosining nazariy asoslarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Tadqiqot normativ-huquqiy hujjatlar hamda milliy va xorijiy psixologik-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, sintez va umumlashtirish metodlariga tayandi. G. Gardnerning ko‘p intellektlar nazariyasiga ko‘ra, inson lingvistik, mantiqiy-matematik, fazoviy, musiqiy, kinestetik, naturalistik, shaxslararo va intrapersonal intellekt turlariga ega [3]. R. Sternberg esa intellektni analitik, ijodiy va amaliy komponentlardan iborat tuzilma sifatida ko‘radi [4].

“Hissiy intellekt” atamasi ilmiy muomalaga P. Salovey va J. Mayer tomonidan 1990-yilda kiritilgan bo‘lib, ular uni o‘z va boshqalarning his-tuyg‘ularini aniq idrok etish, anglash, fikrlashni yengillashtirish uchun foydalanish hamda samarali boshqarish qobiliyati sifatida ta’riflagan [5]. Ularning jarayon modeli hissiy intellektni to‘rt darajada – his-tuyg‘ularni idrok etish, ulardan foydalanish, ularni tushunish va boshqarishda ko‘rib chiqadi [6]. D. Goleman modeli besh komponentni: o‘z his-tuyg‘ularini anglash, ularni boshqarish, o‘z-o‘zini rag‘batlantirish, boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash (empatiya) va munosabatlarni boshqarishni o‘z ichiga oladi [7]. R. Bar-On modeli esa intrapersonal va interpersonal ko‘nikmalar, stressga chidamlilik, moslashuvchanlik hamda umumiy kayfiyatni ajratadi [8].

Milliy adabiyotlarda mazkur masala pedagogik muloqot, pedagogik texnologiyalar va kasbiy tayyorgarlik kontekstida o‘rganilgan. N.N. Azizxo‘jayeva o‘qituvchining hissiy kompetentligini shakllantirishga qaratilgan maxsus dasturlar zarurligini asoslagan [9], R. Mavlonova esa muloqotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, ziddiyatli vaziyatlarni tahlil qilish va refleksiya metodlarini hissiy etuklikni shakllantirish vositalari sifatida e’tirof etgan [10].

Natijalar va muhokama

Mavjud yondashuvlarni umumlashtirib, hissiy intellektning to‘rt komponenti ajratildi: kognitiv komponent (hissiy ma’lumotni va his-tuyg‘ular tilini ongli idrok etish); hissiy-baholash komponenti (hamdardlik, qadriyatlar yo‘nalishi); kommunikativ komponent (muloqotning hissiy rangini bashorat qilish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tanish); faoliyatga oid komponent (maqsadga erishish uchun his-tuyg‘ulardan foydalanish, hissiy o‘z-o‘zini rag‘batlantirish va boshqarish).

Hissiy intellekt o‘qituvchilik faoliyati samaradorligining tizimli omili sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi har kuni turli temperament va ruhiy

holatdagi o‘quvchilar bilan muloqotga kirishgani uchun uning faoliyati yuqori hissiy chidamlilik va ruhiy barqarorlikni talab etadi. Bu holat A.R. Hochschild tomonidan ta’riflangan “hissiy mehnat” (emotional labor) tushunchasi bilan bog‘liq [11]: o‘qituvchi o‘z hissiyotlarini ongli boshqarib, qulay psixologik muhit yaratishi shart. Hissiy intellekt yetarli rivojlanmaganda hissiy charchash, kasbiy deformatsiya va o‘quvchilarga nisbatan tajovuzkorlik kabi salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin; rivojlangan hissiy intellekt esa o‘qituvchiga o‘zgaruvchan ijtimoiy muhitda o‘zini barqaror his qilish va o‘quvchilar bilan aloqa chegaralarini to‘g‘ri belgilash imkonini beradi.

N.A. Muslimov pedagogik faoliyatda ijodiy tafakkur va hissiy munosabat uyg‘unligining muhimligini ko‘rsatgan [12]. O‘z his-tuyg‘ularini boshqara olmaydigan o‘qituvchi o‘quvchilar bilan ishonch munosabatini yo‘lga qo‘ya olmaydi.

Hissiy intellekt g‘oyalarining ildizlari Sharq mutafakkirlari merosida ham mavjud. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”da bilimli kishining ustunligini o‘zini va boshqalarni anglashida ko‘rsatgan [13], Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da muallimning o‘quvchiga mehri va sabr-qanoatini pedagogik muloqotda insonparvarlik yondashuvining asosiy sharti sifatida e’tirof etadi [14]. Bu qarashlar zamonaviy modellardagi o‘z-o‘zini anglash va empatiya komponentlari bilan hamohangdir.

Hissiy intellektni rivojlantirish imkoniyati haqida psixologiyada ikki xil fikr mavjud. Bir qator olimlar (jumladan, J. Mayer) uni nisbatan barqaror qobiliyat deb hisoblaydi, biroq mashg‘ulotlar orqali hissiy kompetensiyani oshirish mumkinligini inkor etmaydi; D. Goleman tarafdorlari esa uni rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi, bu pozitsiyani miya asab yo‘llarining inson hayotining o‘rtalarigacha rivojlanishda davom etishi qo‘llab-quvvatlaydi. Maxsus treninglar hissiy intellektni oshirishi mumkinligi ilmiy tadqiqotlarda ko‘rsatilgan [15].

Talaba yoshida yetakchi faoliyat kasbni egallash bo‘lgani uchun hissiy intellekt asosan kasbiy rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali shakllanadi. Bunda guruh mashg‘ulotlari, individual treninglar, murabbiylik, interaktiv metodlar, kollektiv loyihalar va art-terapiya vositalari samarali hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uch bosqichda – tayyorgarlik, integratsiya va ijodiy bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa

Nazariy tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi: birinchidan, hissiy intellekt shaxs intellektining ajralmas qismi bo‘lib, o‘qituvchilik faoliyati samaradorligining tizimli omili hisoblanadi; ikkinchidan, uning mazmunini kognitiv, hissiy-baholash, kommunikativ va faoliyatga oid komponentlar tashkil etadi; uchinchidan, hissiy intellekt maxsus tashkil etilgan ta’lim jarayonida rivojlantirilishi mumkin; to‘rtinchidan, bu jarayon o‘qituvchining pedagogik ko‘magi bilan tartibga solinib, talabalarning kognitiv-yo‘naltirilgan bosqichdan faol ishtirok bosqichiga o‘tishini ta’minlaydi; beshinchidan, bunda milliy ma’naviy meros va zamonaviy ilmiy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish alohida samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-4545884.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-5841063.

3. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – 440 p.

4. Sternberg R.J. Beyond IQ: A Triarchic Theory of Human Intelligence. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985. – 436 p.

5. Salovey P., Mayer J.D. Emotional intelligence // Imagination, Cognition and Personality. – 1990. – Vol. 9, No. 3. – P. 185–211.

6. Mayer J.D., Caruso D.R., Salovey P. Emotional intelligence meets traditional standards for an intelligence // Intelligence. – 1999. – Vol. 27, No. 4. – P. 267–298.

7. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.

8. Bar-On R., Parker J.D.A. The Handbook of Emotional Intelligence. – San Francisco: Jossey-Bass, 2000. – 544 p.

9. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. – 200 b.

10. Mavlonova R.A., To‘rayeva O.T., Xoliqberdiyev K.M. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 512 b.

11. Hochschild A.R. The Managed Heart: Commercialization of Human Feeling. – Berkeley: University of California Press, 1983. – 327 p.

12. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 208 b.

13. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Fan, 1971. – 964 b.

14. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. – 352 b.

15. Schutte N.S., Malouff J.M., Thorsteinsson E.B. Increasing emotional intelligence through training: Current status and future directions // International Journal of Emotional Education. – 2013. – Vol. 5, No. 1. – P. 56–72.